

— Qishki ta'tilda miriqib gazeta o'qiydigan bo'ldim, — deydi  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
35-maktabning 4-«G» sinf o'quvchisi Feruza SOTVOLDIYEVA



*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

*Tong*

# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan




**Yangi yilni qanday kutib oldingiz?**  
4-bet

**Kim ibratli yigit bo'ladi?**  
3-bet

**She'rlaringizni o'qib...**  
5-bet

**QIRQ DARXONLIK CHEMPION**  
7-bet



**Qorlar olib keldi qish,  
«Tong yulduzi»ga olqish!**

## MUNOSIB NOMZOD SAYLANDI

Aziz bolajonlar, yigit-qizlar!  
Xabaringiz bor, 2007-yilning 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi M.Abdusalomov saylovning dastlabki yakunlariga bag'ishlangan brifingda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatimizning yangi tarixi, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda tarixiy bosqich bo'lganini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining dastlabki yakunlariga ko'ra, Islom Karimov 13 million 8 ming 357 ovoz yoki saylovda qatnashgan saylovchilar umumiy sonining 88,1 foizini oldi. Asliddin Rustamov 468 ming 64 ovoz – ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 3,17 foizi, Akmal Saidov 420 ming 815 ovoz – 2,85 foizi, Dilorom Toshmuhammedova 434 ming 111 ovoz – 2,94 foizi miqdorida ovozga ega bo'ldi. Bunda byulletenlarning 2,94 foizi haqiqiy emas, deb topildi.

Milliy saylov qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlari haqidagi axborot saylovdan keyin o'n kundan kechiktirilmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan matbuotda e'lon qilinadi.

Saylovda 18 yoshga to'lgan yoshlar ham ilk bor ovoz berib, o'zlarining konstitutsiyaviy fuqarolik burchlarini ado etdilar. Biz ularni tabriklaymiz.

Shunday qilib, mustaqil O'zbekiston o'zining eng munosib nomzodini sayladi.

**MINNATDORMIZ**

Mana, 2007-yilimiz ham tugadi. Lekin «Tong yulduzi» gazetasiga obuna jarayoni tugagani yo'q. Obunachilarimiz soni ortgandan- ortib boryapti.

Obunani tashkillashtirishda faollik ko'rsatayotgan barcha insonlarga, xususan, Jizzax viloyatining Jizzax tumani Xalq ta'limi bo'limi mudiri D.Nosirovga, G'allaorol tumani Xalq ta'limi bo'limi mudiri A.Toshbekovlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz!

**OBUNA DAVOM ETMOQDAI**

**Nashr Indeksi-198**



Vatan yugonadi, vatan biradi!  
**Tong YULDUZI**

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

**Muassislar:**

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

**BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvov SARIQOV.

**Rassomlar:**

Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

**Dizayner va sahifalovchi:**

Fazliddin SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

**Manzillimiz:**


700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi-198.  
e-mail: tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25, 144-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 144-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning seshanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi - 54740  
Buyurtma N: J 4503

**VATANGA XIZMAT —  
ENG OLIY HIMMAT**



O'zbek o'g'loni borki, qalbida ona yurtini himoyalashga va qo'riqlashga bo'lgan ishtiyoq alangalab turadi. Vatani ko'z qorachig'idek asrab-avaylashni o'zining yigitlik burchi deb biladi.

—Yoshligimdan: «Katta bo'lsang, kim bo'lasan?» deb so'rashganda, o'ylab ham o'tirmay, askar bo'laman, deb javob berardim, — deya xotirlaydi farg'onalik Otabek Ismoilov. Yigitlik xizmatim davomida harbiylikka bo'lgan mehrim yana-da ortdi. Ota-onam, opa-singillarim, oilam, mahallam, Vatanim tinchligini, osoyishtaligini qo'riqlayotganimdan qalbimda faxr va iftixor tuyg'ulari jo'sh uryapti.

—Men ham bu yilni Prezidentimiz tomonidan «Yoshlar yili» deb e'lon qilinganidan xursandman. Bu menga kuch va quvvat bag'ishlaydi.

Ukalarimga ham tilagim shu: yurtimizning haqiqiy posboni bo'lishsin!

*Nodira MURODOVA,  
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani*

Aslida mening bo'sh vaqtim juda kam bo'ladi. Darslar, mashg'ulotlar degandek. Lekin biroz bo'sh qoldim deguncha, oyijonimning yoniga oshiqaman. O'tirib olib, ularning ishlarini diqqat bilan kuzataman. So'ngra, ularga yordamlasha

b o s h l a y m a n .

Oyijonim bilan birgalikda choynak uchun g'ilof, kichkina kavushchalar, sovg'a uchun qutichalar yasab, ularni chiroyli qilib bezatamiz. Bezak berishda turli munchoqlardan foydalanamiz. Ishimiz bitgach, ularga tikilib, shu ishlarni o'zim qilganimdan quvonib ketaman. Vaqtim behuda ketmaganligidan onam ham xursand bo'ladi. «Ona qizim, yordamlashganing menga, hunar o'rganganing esa o'zingga foyda», deyдилar oyijonim mehr bilan boshim silab.

**O'RGANGANIM  
O'ZIMNIKI**


*Nilufar KOMILOVA,  
poytaxtdagi 247-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi*

**NUH TO'FONI  
QAYTARILADIMI?!**

Tadqiqotchi olimlarning so'nggi fikrlariga ko'ra, to'rt marotaba yerni to'fon bosgan. Ularning eng so'nggisi Nuh to'foni edi. Nuh payg'ambar davrida odamlar johil, o'zboshimcha va o'zlariga haddan oshiq bino qo'ygan edilar. To'fon boshlanib, Nuh payg'ambarning qavmi halokatga uchragan edi.

Ximolay ekspeditsiyasidan qaytgan professor E.Sho'ldoshev bu voqeani 850 ming yil avval sodir bo'lganini qayd etib, bu to'fon yerning 6666 km. og'ib ketgani bilan bog'liqligini-yu, Oltoy, Ximolaydagi qadim yer osti odamlar makonlari haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan. Unga Nuh to'foni yana qaytariladimi, deya savol berishganda, agar biz odamiylikni birinchi o'ringa qo'ysak, nafsimizdan ustun yashasak, ma'rifatli va diyonatli bo'lsak, yer o'z o'qidan 6666 km. teskari tom onga og'ib ham ketmaydi, falokat ham ro'y bermaydi, deb aytgan.

Qissadan hissa shuki, aziz o'smirlar, qanday yashash o'zimizga bog'liq. So'zda ham, ishda ham ehtiyot bo'lgan ma'qul, deb o'ylaymiz. Siz-chi? Siz bu to'g'risida nima deysiz? Xatlaringizni kutamiz.



**SHVEYTSARIYALIK  
MEHMON**

12-umumiy o'rta ta'lim maktabimizga har yili Angliya, Yaponiya, Koreya kabi turli xorijiy davlatlardan mehmonlar kelishi an'anaga aylangan. Bunday uchrashuvlarni ustozimiz Akromjon aka Yusupov tashkillashtiradilar.

Yaqinda Shveysariyadan Devid ismli bir yigit mehmon bo'lib keldi. Mehmonimiz suhbat chog'ida go'zal O'zbekistonimizning turli shaharlarida bo'lganligini, yurtimiz havosi, tabiati, qolaversa, taomlari juda manzur bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tdi. Devid bilan do'stlashib, esdalik uchun suratga ham tushib oldik. Devid O'zbekistonga yana kelishini aytib, biz bilan xayrlashdi.

*Iroda IRAIMJONOVA,  
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani*



«Orqada qolmang!»

**ROBOT UYINGIZGA KELADI**


Yaponlar bo'yi 130 sm. bo'lgan robot yaratishdi. U soatiga 6 km. tezlikda harakatlana oladi. Suzmaydi, ovqat tashiydi. Ko'kragingizda ismingiz yozilgan qaydnoma bo'lsa, o'qiy oladi.

Bugungi kunda T-12 nomli robotlar Yaponiya savdo shoxobehalarida xaridorlar og'irini yengil qilmoqda. U buyruqqa binoan xaridor uchun do'konga kirib, kerakli oziq-ovqat, buyumlarni xarid qiladi. Uning ko'zlari orqali Siz peshtaxtalardan xohlagan molingizni tanlashingiz yoki suratga olishingiz mumkin.

Aziz yoshlar, orqada qolmang. Siz ham ixtirochilik bilan shug'ullaning, bir kun kelib, yaponlar Siz haqingizda shov-shuv tarqatsinlar!

Aytganday, ixtirolaringiz bo'lsa, bizga yuboring.







# YOSHLAR HAMKORI

Tong yulduzi  
1-yanvar

2008



Qadrlı o'quvchilar, ona tabiatimiz, atrof-muhitning haqiqiy himoyachisiga aylangan «Ekosan» xalqaro tashkiloti haqida ozmi-ko'pmi ma'lumotga egasiz-a? Ana shu tashkilotning yurtimizda faoliyat ko'rsatayotganiga ham 15 yil bo'libdi.



Shu munosabat bilan Toshkentdagi «Navoiy kon-metallurgiya» kombinati Biznes markazida 2007-yilning ekologik yakunlari va «Ekosan»ning 2008-yil – «Yoshlar yili»dagi vazifalari mavzuida katta anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda «Ekosan» barqaror rivojlanish yo'lida 15 yil» kitobi taqdimoti ham o'tkazildi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasining deputatlari, «Ekosan» muassis tashkilotlarining rahbarlari, qator vazirlik va idoralar, Oliy o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlarining rahbar va vakillari, «Yoshlar Ekoparlamenti» a'zolari, jurnalistlar ishtirok etdilar.

Yig'ilishda «Ekosan» xalqaro tashkiloti raisi Yusufjon Shodimetov ma'ruza qildi.

## Qisqacha ma'lumot:

1. «Ekosan» tashkiloti 2007- yilda «Ijtimoiy himoya yili» maqsadli dasturining amaliyoti bo'yicha samarali faoliyat olib bordi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo viloyatiga uch martadan, Xorazm va boshqa viloyatlarga ikki martadan, jami 21 ta «Ekosan» Salomatlik poyezdlari yuborilib, 1 mlrd. 2 mln. so'mlik insonparvarlik yordamlari ko'rsatildi.

3. Bo'stonliq tumanida an'anaviy «Chorvoq – 2007» bolalar ijodiyoti ekofestivali o'tkazildi.

4. Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi «Oqqovoq» qishloq fuqarolar yig'inining «Yoshlik» mahallasida ichimlik suvi minorasini qurish va suv qudug'ini qazish loyihasi yakunlandi.

5. 24 ta xalqaro konferensiyalar, uchrashuvlar, «Davra suhbatlari» o'tkazildi.

6. 2007-yilning fevral, mart oylarida Dehli shahrida «Ekoturizm tinchlik madaniyati hamda barqaror rivojlanishning muhim omili» mavzusidagi xalqaro Ekofestival o'tkazildi.

## Eng ibratli yigit kim bo'ladi?

Faollar yig'ilishida «Ekosan»ning 2008-yil – «Yoshlar yili»dagi vazifalari va maqsadli dasturi muhokama qilindi.

Mazkur Dastur juda keng qamrovli bo'lib, unda O'zbekiston yoshlarini atrof-muhitni muhofaza qilish jarayoniga kengroq jalb qilish, ularning mustaqil hayotga tayyorlash va «Ekosan – Kamolot»: yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida hamkorlik shiori ostida o'tkaziladi.

Orol bo'yi va boshqa ekologik holati noqulay bo'lgan hududlarga «Ekosan» Salomatlik poyezdlarini yuborish va ular orqali 15 mingta yosh oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha maqsadli Dasturlar davom etadi.

Qishloqdagi yosh oilalarning turmush madaniyatini yaxshilash maqsadida «Qishloq yoshlari: turmush madaniyati, ekologiya va salomatlik» Dastur bo'yicha ham tadbirlar o'tkaziladi

Maqsad ezgu ekan, omadingizni bersin. Xususan, har taraflama yetuk, mard, jasur, zakovatli yigitlarni kamol toptirish maqsadida «Bir yigitga qirq hunar oz» shiori ostida «Eng ibratli yigit» Respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish ham ko'zda tutilgan.





## PREZIDENT SOVG'ASI- QUVONCHLAR HADYASI



Bir necha yildirki, bolajonlarga Yangi yil tuhfasi sifatida Prezident sovg'asi topshiriladi. Bu kabi tadbirlarning o'tkazilishi esa davlatimizning bolajonlarga nisbatan g'amxo'rlikidan nishonadir.

Respublikamizda mavjud «Mehribonlik uy»larida 2824 nafar, mahallalarda 5102 nafar 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan chin yetim bolalar, oilaviy bolalar uyidagi 34 nafar va muruvvat uylaridagi 1501 nafar, go'daklar uyidagi 722 nafar bolalar, «SOS» bolalar mahallasidagi 154 nafar bolalarga, shuningdek, Toshkent shahridagi kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga, Vatan sarhadlarini himoya qilib, yurtimiz ozodligi va tinchligi yo'lida qurbon bo'lganlarning farzandlari uchun ham Prezident sovg'alari berildi.

NAFISA



## BAYRAM TABRIGI

Prezident archasiga borgan kunlarim, undagi quvonchlarim haligacha yuragimni jumbushga keltiradi. Bir necha kun davom etgan aynan ana shu daqiqalar umrbod xotiramda muhrlanib qoladi. Qorbobo bilan Qorqiz, chiroyli yasatilgan archa quvonchimizga yana-da quvonch qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi rahbari Islom Karimovning biz bolalarga yuborgan bayram tabriklari o'qib eshitirilganda, quvonganimizni aytmayisizmi?! Bunday bayramlar ulg'ayganimizda ham biz uchun shirin xotira bo'lib qolaveradi.

*Shahzod  
TO'RAYEV,  
poytaxtimizning  
Yunusobod  
tumanidagi  
302-  
maktabning  
8-«A» sinf  
o'quvchisi*

## QISHNING O'Z ZIYNATI BOR

Har faslning o'z gashti, fazilati bo'ladi. Qishning izz'irin va sovuq kunlari ko'pchilik tengdoshlarimga yoqmasligi mumkin. Ammo menga bu fasl juda yoqadi. Chunki qishda hamma orziqib kutadigan Yangi yil bayrami nishonlanadi. Biz ham oilamiz bilan bu kunga o'zgacha kayfiyatda tayyorgarlik ko'rdik. Uyimizga turli yaltiroq o'yinchoqlar taqilgan kattakon archa bezatdik. Bu yil sichqon yili ekan. Aytishlaricha, to'kinlik, barakali yil bo'larkan. Men fursatdan foydalanib, barchaga Yangi yilda yangi zafarlar tilayman.

*Shahruza SHIRINBOYEVA,  
Samarqand viloyati,  
Poyariq tumanidagi 56-maktab o'quvchisi*



## ERTAKLAR FASLIGA O'XSHAYDI



Yangi yilga qadam qo'yarkanmiz, eski yildagi yutuq va kamchiliklarimga bir nigoh tashlab oldim. 2007-yil men uchun juda barakali yil bo'ldi, desam adashmayman. Chunki «Tong yulduzi»da bir necha maqolalarim chop etildi. Shu bois ham tumanimizda, viloyatimizda bo'lib o'tgan bir necha tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladim.

Yangi yildan tilagim shu: barcha sog'-salomat bo'lsin. Gina-kuduratlar, xafagarchiliklar eski yilda qolib ketsin.

*Jobir ISMATILAYEV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Koson tumani*

## UYIMIZDA QORBOBO

Yangi yilni hamma o'zgacha kayfiyat bilan kutib oladi. Biz Yangi yil kechasi oilamiz darvasida shirin suhbat qurib, televizor tomosha qilib o'tirgan edik. Birdan eshik taqillab qoldi. Kim ekan, deb eshikni ochib qarasaq, Qorbobo turibdi. Xursand bo'lganimizdan chapak chalib yubordik. U bizni Yangi yil bilan qutlab, sovg'alar ulashdi. Men damamga: – Qorbobo kelishini aytmandingiz-ku, – desam, ular:

– Sizlarga kutilmagan sovg'a bo'lsin dedim-da, – deb kulib qo'yдилar. Biz Qorboboni dasturxoniga shuncha taklif qilsak ham, u ichkariga kirmadi. Issiq pechkaning oldida erib ketaman-ku, deb turib oldi. Ammo bir piyola issiqqina



choy bo'lsa bo'ldi, dedi-yu, ayam olib chiqqan choyni mazza qilib ichib oldi. Shunda Qorbobo ham issiq choy icharkanmi, deb o'ylab qoldim. Issiqda u erib ketmasmikin? Siz nima deb o'ylaysiz, bolalar?

*Malika CHORIYOROVA,  
Surxondaryo viloyati, Denov tumani*

## «YALMOG'IZ»NING TOPISHMOG'I

Maktabimizda Yangi yil kechasi bo'ldi. Bayram tadbirimizga o'n ikki muchal sohiblari, Qorbobo va Qorqiz tashrif buyurishdi. Birdan Qorboboning qopi yo'qolib qoldi-yu, biz o'quvchilarning ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. Chunki uning ichida bizga atalgan sovg'alar bo'lishi kerak edi-da. Xullas, uni Yalmog'iz kampir va ochko'z bo'ri o'g'irlashgan ekan. Yalmog'iz, agar topishmog'imni to'g'ri topsangiz, qopni olasiz, deb turib oldi. Biz ham u bergan topishmoqlarni javobini birma-bir aytib boshladik. Shu payt boshlang'ich sinflar orasidan bir bola otilib chiqdi-yu, Yalmog'iz kampirga yopisha ketdi. Uning uzun burni, yirtiq-yamoq ko'ylaklarini tortib oldi. Ne ko'z bilan ko'raylik-ki, Yalmog'iz kampir «roli»da o'zimizning o'qituvchimiz ekan. Buni ko'rib haligi bola ham qotib qoldi. Biz esa bu bolaning qilmishidan o'zimizni kulgudan to'xtatolmasdik. Bu safargi Yangi yil bayrami esimizdan bir umrga chiqmaydigan bo'ldi.

*Noila XOLOVA,  
Jizzax viloyati, Paxtakor tumani*



Bolalikning olami qiziq, hayrat va hayajon bilan boqadi dunyoga uning ko'zlarini. Kechagina zavq-u shavq bilan xirom etayotgan raqqosaning harakatlarini kuzatib, kelgusida san'atkor bo'lishni orzulayotgan qizaloq, bugun ustozidek ardoqli muallima bo'lgisi kelib qolishi hech gapmas.

Askar akasining kiyim-boshiga, xatti-harakatlariga havas qilib, «Men ham askar bo'laman», deb yurgan bolakay esa boks qiroli Ruslan Chagayev g'alabasidan ruhlanib, bokschi bo'lishni xohlab qolishi ham mumkin.

Lekin oralarida shunday o'g'il-qizlar ham borki, ularning maqsadi tayin. Ulg'aygach, qanday kasb egasi bo'lishlarini hozirdanoq hal qilib, bu yo'lda tinmay izlanishadi. Buni ijodkor bo'lish ishtiyoqida tahririyatimizga o'z she'riy mashqlarini yo'llayotgan o'quvchilar maktublari mazmunidan ham bilishimiz mumkin. To'g'ri, bunday she'riy mashqlarning hammasini ham tugal she'r deb bo'lmaydi, kamchiliklardan holi emas, albatta.

Lekin yosh qalamkashlar qalbidagi adabiyotga, she'riyatga bo'lgan havas va ishtiyoq qalbimizda umid uchqunlarini uyg'otadi. She'rlaridan bolalikning isi keladigan shunday ijodkorlar ham borki, xarakterli topilmalar, mushohadalar, majoziy qiyoslashlar o'quvchini hayratga soladi.

Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi Qum qiyali qishlog'ida yashovchi o'n olti yoshli Rahimaxon Xudoynazarovanning «Yana osmon uzilib tushdi»

h a m d a  
«Bolalikni qo'msab...»  
nomli she'rlarini o'qib, biz shunday holatga tushdik:



**Senga jism-u  
jonim oshufta  
hamon**

*Munkaygan alamdan dil urar larzon,  
Nega otash qalbm nuray boshladi?  
Oh, baxtning bahori bo'ldi-ku sarson,  
Bolalik, sog'inching ko'zim yoshladi.*

*Sabolar sarg'aydi seni axtarib,  
Qara, manglayimni o'pdi ajinlar.  
Sensiz kunim qaro, tunlarim g'arib,  
Endi vujudimni armon g'ijimlar.*

*Sarosar xayolim sengadir payvast,  
Senga jism-u jonim oshufta hamon.  
Botiniy bir tuyg'u, ovozsiz bir sas,  
Orombaxsh taftingni izlaydi har on.*

*Bugun yolg'izlikka berolmay bardosh,  
Shodliklar o'rnini anduhlar bosar.  
Bolaligi ketgach, entikkan ko'z yosh,  
Qara, kiprigimga o'zini osar...*

Rahimaxonning ijodi bilan tanishib, she'riyat bog'ida ajabtovur bir chechak o'zining muattar bo'yi, betakror chiroyi bilan ko'z ochayotganiga umid qilgimiz keldi.

Shuningdek, oqqo'rg'onlik ijodkor qizimiz Nodira Murodovanning beg'ubor bolalikni, sevgi va sadoqatni, mehr va muruvvatni kuylovchi she'rlari, bu dunyoning o'tkinchi ekanligini, insonlarning o'zlaridan yaxshi nom

qoldirishga intilib yashashlari lozimligini eslatib turuvchi badialari ham bizga juda manzur bo'ldi:


**GUL der:**

– Men bo'lmasam bunchalar yonib,  
Dildan sayrab, yayrarmiding, ey, Bulbul?



**BULBUL der:**

– Ey, Gul, sayrash nima unutib,  
Sahroga bosh olib ketardim butkul!



Haqiqiy ijodkor borliqqa o'zgacha bir nigoh bilan boqishi, hali hech kim aytmagan yangi fikr va tashbehlarni topa bilishi, shuning barobarida, she'riyatning o'zigagina xos bo'lgan qonun-qoidalariga amal qilmog'i lozim.

Shundagina  
haqiqiy SHE'R tug'iladi.

Navoiylik Navbahor Berdiyeva qoralamaları she'riyatning ana shunday talablariga javob bera oladi, degan fikrimizga uning «Mehribonlik uyi» bolalarining ruhiy kechinmalari, urush qatnashchilarining mungli xotiralari, onalar duosining xosiyati haqidagi she'rlarini o'qisangiz, siz ham qo'shilasiz, deb o'ylaymiz. Fikrlari teran, mulohazalari serma'no, tasavvuri ancha keng bo'lgan Navbahorning «Kamalak» nomli she'rini birgalikda o'qib ko'raylik:

*Yong'ir tingach silkindi,  
Tollar sochi jamalak.  
Turfa xilda toylanib,  
Ko'kka chiqdi kamalak.  
Kamalakdan rang oldi,  
Jilolanib gullarim.  
Chamanlarga yo'l soldi,  
Yolg'izoyoq yo'llarim.*



To'g'ri, ijodkorning so'z boyligi mo'l, xayolot olami, tasavvuri juda keng bo'lishi kerak. Lekin Termiz shahridagi 13-maktabning 8-sinf o'quvchisi O'tkirbek Farmonovnikichalik emas-da:

*Shunda qo'ylar ma'rashi ham,  
Tindi bir zum g'ala-g'ovurlar.  
Soy ham oqishdan to'xtadi bir dam,  
Osmonda qalldiroq chaqdi gumburlab.  
Bulutlar ham ko'z yoshin to'kdi,  
To'kdi yoshin mayda-maydalab.  
Shunda bir zum vaqt to'xtadi,  
To'xtadi bir zum yer aylanishdan.*

Aslida she'r badiiy to'qimalar asosiga quriladi. Lekin ular haqiqatan yiroq bo'lmasligi lozim. Ijodkor yozganlariga o'zi ishonsagina, o'zgalarni ham ishontira oladi.

Dunyoda Vatan deb nomlanuvchi shunday bir xilqat borki, u haqida ko'p va xo'p yozishgan. Lekin unga munosib so'z aytish, ta'rif berish juda mushkul.

G'ijduvon tumaniga qarashli 57-umumta'lim maktabi qoshidagi «Adabiyot shaydolari» to'garagi a'zosi Zarina Boltayevaning «O'zbekistonim» nomli she'ridan Vatanga nisbat qilingan yangi fikrni, munosib qiyosni topa olmadik:

*Hali ko'p bo'lasan dillarda mashhur,  
Hali sen dillarda quvnoq bo'lib hur.  
Bir qarich tuprog'ingga arzimaydi dur,  
Ey, mening Vatanim, O'zbekistonim!*

Vatan mavzusi yetakchilik qiladigan Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi Qovchin qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejining 3-bosqich tolibi Asqar Murodovning:

*Mening ona yurtimni  
O'zbekiston deydilar,  
Hamma yeri chamanzor,  
Bog'u bo'ston, deydilar...*



kabi misralar bilan boshlanuvchi she'ri haqida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Shu mavzuda q a l a m

tebratgan  
Farg'ona viloyati,  
O'zbekiston tumanidagi Bekobod qishlog'ida yashovchi Mohinur Mirzadavlatovanning «O'zbekistonim» nomli she'rida mazmun ustuvor bo'lib, vazn va qofiyaning buzilishi ko'zga tashlanadi:

*Hatto dasht-u cho'llaringda bosh ko'targay  
maysalar,  
Gullaringga shaydo bulbul, bog'laringda kuy  
chalar.  
Barkamol bu farzandlaring baxt-u iqboli kular,  
Kamolingdan ilhomlanib Mohinur she'rlar bitar.*

Jizzax shahridagi Oxunboboyev nomli 6-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi Go'zal Tojimurodovanning «Sinfidosh» nomli she'rida esa aksincha, zo'rma-zo'raki qofiyaga kuch berilgan-u, mazmun e'tibordan chetda qolgan:

*Maktab chog'in eslaganda ko'zingizga gar  
kelsa yosh,  
Ro'molchani olib sekin, art ko'zingni, ey  
sinfidosh.  
Mana shuncha kunlar o'tdi, axir unda edik  
bebosh,  
Gar kechikib qolsak darsga, muallimlar  
chimirlar qosh...*

Tahririyatimizga she'riy mashqlarini yo'llagan buxorolik Azizbek Ramazonov, surxondaryolik Fotima Abduxoliqova, buxorolik Mohichehra Po'latova, qashqadaryolik Mansur Jumayev, samarqandlik Sevinch Akromova, surxondaryolik Muazzam Pardayeva kabi ijod ixlosmandlarining she'rlari ham yuqoridagi kamchiliklardan holi emas.

Shunday uzundan-uzoq she'rlar bo'ladiki, o'qiyverasan-u, fikrlar tarqoqligidan hech qanday mantiq, mazmunni uqolmaysan. Yana shunday ixcham she'rlar borki, unda bir olam ma'no mujassam.

Biz bu fikrni bejiz keltirmadik. Sevimli shoirimiz Safar Barnoyev «Tong yulduzi» gazetasi hayotimda «qisqa yozish maktabi» vazifasini o'tagan, degandilar. Shunday ekan, aziz bolajonlar, siz ham fikringizni qisqa va lo'nda tarzda bayon qilishga o'rganing. Yozgan she'rlaringizni tahririyatimizga yo'llashdan avval uni adabiyot o'qituvchingizga albatta o'qitib oling. «Ustoz ko'rmagan shogird ming maqomga yo'rg'alar», deb bejiz aytilmagan-ku, axir. Maktublaringizni kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA



TOMDA  
YASHAYDIGAN  
KARLSON



va Bolakay haqida qissa

hiqillab yig'layverdi. Izma-iz Bosse bilan Beton kirishdi.

– Bizni kechira qol, ukajon! – dedi Beton bolaning boshini silab, – hazillashdik.

– Qo'y endi, yig'lama, – uni ovutdi akasi Bosse, – kap-katta bo'lgandayam yig'laydimi?

Bolakay ovozini qo'yib ho'ngrab yubordi. Onasi yugurgilab kirdi.

– Kim mening erkatoymni yig'latdi? – dedi oyisi, – qani, senlar tuyoqlaringni shiqillatinglar-chi!

Oyisi anchagacha Bolakayning yonida uning boshko'zini silab, ovutib o'tirdi.

Lekin baribir u o'rmdan turmadi. Bolakay akasi bilan opasidan qattiq xafa bo'lgan edi.

Eshikda dadasining boshi ko'rindi:

– O'g'lim, seni tashqarida biron kutib turibdi, – dedi u kulib.

– Endi ochimdan o'lsamam o'g'irlik qilmayman de.

– O'lsamam o'g'irlik qilmayman...

– Xudo, meni kechir de.

– Xudo, meni kechir...

– Ha, bu yaxshi ish bo'ldi, bolam, – dedilar tog'a Arkanni boshini silab,

– Xudoning marhamati keng, astoydil t a v b a qilganni kechiradi.

Ko'rib turibman, tavgang astoydil bo'ldi. Lekin aytib

qo'yay, Xudo bir marta kechiradi. Bugun tavba

qilib, ertaga yana o'g'irlik qilsang, boshqa kechirmaydi, albatta qorning yoriladi.

– Endi qilmayman, tog'a, – boyagidan ancha yengil tortib xo'rsindi Arkan.

– Yana bitta sharti bor, bolam, Xudo batamom kechirishi uchun manavi o'rtoqlaring ham seni kechirishi kerak.

Arkan bizga yalingandek jovdirab qaradi. Biz tog'aga qaradik. Tog'a bizga tikilib turdilar-da:

– Xo'sh, jo'raylarni kechirdiylarmi, – dedilar.

– Kechiramiz.

– Ana endi Xudoning oldida ham, jo'rularingni oldida ham yuzing yorug' bo'ldi, bolam. Boriylar endi, ishga zo'r beringlar...

Mamariza tog'a ana shunaqa yaxshi odam edilar. Karimboy cholga o'xshab aytar-qaytar emas edilar. Karimboy cholni o'zi tushunib bo'lmaydi-da. Bir qarasang, judayam yaxshi, bir qarasang, undan it

– Kim ekan u, kiravermaydimi? – dedi oyisi.

– Gunilla bilan Krister bo'lsa kerak, – dedi yostiqdand asta bosh ko'tarib Bolakay.

Shu mahal ko'cha eshikda kuchukning g'ingshiganiga o'xshash tovush eshitildi. Bolakay qulog'ini ding qildi. Bu rostdan ham kuchukning ovozi edi. Bosse tashqariga otildi. Saldan keyin chiroyli bir kuchuk bolani ko'tarib kirdi.

– Buning oti Bimbo, – dedi dadas, – endi u seniki bo'ldi.

Bolakay Bossening qo'lidan kuchugini tortib oldi:

– Rostdan-a? Bu endi o'z-o'zimmikimi? Rahmat, dada!

Bolakay «Bimbo! Bimbo!» deya kuchukni bag'riga bosib erkalay boshladi.

Kech kirib, o'tirishni boshlaydigan vaqt ham yaqinlashib qolgan edi. Bolakay oshxonaga chiqdi. Qarasa, oyisi bir jahon pishiriq pishirib qo'yibdi.

Bolakay ularni bir-bir tatib ko'rди va oyisidan so'radi:

– Oyi, tug'ilgan kunimga Karlsonni ham chaqirsak degandim, nima deysiz?

– Menimcha, shart emas. Bugun u kelmasa ham kerak.

– Qayoqdan bilasiz, chaqirsak, albatta keladi. Ko'chalarga yoz oqshomi qo'nganda ziyofat boshlandi.

Sovg'alarni ko'tarib, Gunilla bilan Krister kelishdi. Bosse bilan Beton bolalar o'zlari o'tirishsin, deb chiqib ketdilar. Bolakayning oilasi bir patnis to'la buterbrod, katta tortni stolga qo'ydi-da, u ham chiqdi.

yaxshi.

Karimboy chol otlarni sug'orish paytida avval aravaga qo'shiladiganlarni, keyin damga qo'yilganlarni, oxirida Parizod, Qorabayir, Qizilbayroqqa ruxsat beradi. Qizilbayroq Partkom tog'aning oti. U haqda sizga aytmapman. Tusi xuddi qizil bahmalga o'xshaydi. Chiroylik-ku, ammo o'lardek g'ash, urushqoq ot. Nuqul Parizod bilan tepishgani-tepishgan. Men ot sug'orish paytida faqat

Parizodni minaman. U ham mendan boshqani yaqiniga yo'latmaydi. «Ot ham biladi-da seni yetimchaligingni», deb Karimboy chol xo'rsinib qo'yadi. Bu uning azbaroyi menga achingani. Rosti bilan menga rahming keladimi, Parizod, deb otga qarayman. Parizod uyqusiragan ko'zlarini menga tikadi. Yaqinda yetimcha bo'may qolaman, deyman suyunchilab. To'ychi xolam shunaqa dedilar. Oyimni topib, savobning tagida qolar ekanlar. Parizod boshini silkib-silkib kishnab yuboradi. Bu uning men bilan gaplashgani. To'ychi xola boshi xumdek, gavalik xotin. Qiz uzatib qaylarga dir boradi, qaylardandir qishlog'imizga kelin tushirib keladi. Usiz to'ylar o'tmaydi. Ismi bo'lsa kerak, lekin u kishini katta-yu kichik To'ychi xola deydi. Bitta-yu bitta qizi bor. Uniyam boshi xumdek. Kuyov chiqmay, o'tirib qolgan. Uyda do'ppi tikib o'tiradi.

Bir kuni To'ychi xola hovlimizga hovliqib kirib keldilar.

– Hay, Tursun, – dedilar ammamga qarab, – suyunchini cho'z, ayangni topdim, ha, aylanib ketay sendan.


– A? – dedilar ammamlarning chiroyi ochilib, – suyunchi sizdan aylansin...

– Bilasanmi, qattaykan bechora?

– Qattaykanlar? – birdaniga ammamlar ko'zlariga yosh oldilar.

– Begovatta... voy, bechora-ey... boshidan o'tganlarini aytib bersa, yer-u ko'k chidamaydi-ya, ha, dushmaningniyam boshiga solmasin bunaqa kunlarni...

– Voy, nimaga siz bilan kelmadilar?



Ahmadqul bobom uzumdan bir boshini olib, donalab bobojonimga yedira boshladi. Men sanab turdim, bir, ikki, uch... Enajonim dasturxonaga non, o'zimizning mevalarimizdan qo'yayotganda, adashib ketdim. Ahmadqul bobom soqolini silkillatib kulib yubordi:

– Kelin, eringiz bolaligidayam erka edi, bekorga otini Erkavoy qo'yishmagan, yiqilib tushsa, men kelib turg'azib qo'ymaguncha arillab yota berardi. He-he-he... Obbo, o'rtog'im-ey, ana, ko'zingni ochding.

Bobomning orqasiga baland qilib katta-kichik yostiqlar qo'yishdi.

– Ha, o'rtoq, isitmang baland ko'rinadi, – dedi Ahmadqul bobom.

– Bor, ancha bor, – entikib dedi bobom.

– Anordan ham yegin, diling ravshan bo'ladi.

– Mayli, beraqol.

– Obbo, o'rtog'-ey, lekin ko'prikni boplabsan.

– Ko'rdingmi?

– Bugun Buzoqqo'rg'onga boruvdim, tegirmonga yuk tashlab keldim.

– Eshakdamiding?

– Ha.

– O'tdimi?

– Tushib yetaklab oldim... Savobga bizni

Hikoya



BETOBLIK

sherik qilishni istamabsan-da? Ho'v, Ahmadqul, deb chaqirmaysanmi, oltita nabiram, to'rtta o'g'limni olib, yoningga bormaymanmi?! Suvga yiqilibmiding?

– Ha, bir-ikki yiqiluvdim.

Enajonimning yuragi hasratga to'lib turgan ekan, dasturxon tuzab bo'lgach, Ahmadqul bobomga choy uzata turib, dardini o'sha kishiga ayta boshladi: – O'rtog'ingizni urishib qo'ying. Xo'p, o'sha kuni-ku suvga yiqilib, shalabbo bo'lib keldilar. Avvalgi kuni bizni yana aldabdilar. Nabiram ikkimizni qishloqqa jo'natib yuborib, yana ikki tup terak kesib ko'prikni yonig'ga qo'yib, kengaytiribdilar. Mol-qo'y o'tolmas emish... Mol-qo'y o'tolmasa, shuncha yildan buyon o'lib qolgani yo'q-ku. Mana, endi ahvollarini qarang, o'laman-u ketaman, emish.

– Qo'ying, Robiyabibi, yig'lamang, – yupatgan bo'ldi Ahmadqul bobom, – o'zi o'rtog'imning yili to'ng'iz-u, lekin baliqqa o'xshab suvni yaxshi ko'radi. Bolaligidayam shaloblatib suvni kechgani-kechgan edi. Do'xtirga odam jo'natmabsiz-da.

– Koshki ko'naqolsalar, – yana ko'ziga yosh oldi enajonim, – o'zi bergan dard, o'zi oladi, deb unamayaptilar.

– Hoziroq borib, boshlab kelaman.

– Voy, qo'shni, bemahalda ovora bo'lasiz-ku.

– E, Robiyabibi, o'rtog'im bu ahvolda ingrab turadi-yu, men tinch yota olamanmi?

– Do'xtir ham darrov ko'na qolmas, – ikkilanib dedi enajonim.

– Ular kechasi xizmat qilishni xush ko'rishadi, savobi ko'p bo'larmish.

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda

Davomi bor.

Erkin MALIK  
UCHAR OTLAR  
BO'LGAN EDI...

Qissa





## QIRQ DARXONLIK CHEMPION

2006-yil yurtimizda yangi sport federatsiyasi ochildi. Uning nomi «Jetkundo federatsiyasi» deb nomlandi. Jetkundo sport turi bir qancha yakkakurash turlarini o'zida jamlagan.

Yangi yil arafasida Buxoro shahrida 13-14 yoshli o'smirlar o'rtasida jetkundo bo'yicha Respublika birinchiligi bo'lib o'tdi. Musobaqaning qizlar o'rtasidagi bahsida samarqandlik Halima Halimova g'olib deb topildi.

Buxorodagi xushxabarni Halima darhol o'zi tug'ilib o'sgan Qirq Darxon qishlog'iga telefon orqali yetkazganida, otasining quvonganini ko'rsangiz

### KIMNING BOBOSI ZO'R?

Sardorbek Yamin bobosini juda ham yaxshi ko'radi. Biz ham yaxshi ko'ramiz, deysizmi? Albatta, hamma bolalar ham uyidagi qariyalarni izzat qiladilar. Ularning nasihatlariga, dono maslahatlariga quloq soladilar.

Tengdoshingiz Sardorbek asli andijonlik. U yaqinda karate bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi. Nevarasi chempion bo'lganida, bobosi kulib: «Championlikning yarmi meniki», deya hazil-mutoiba qildilar. Chunki har tong nevarasini shirin uyqusidan uyg'otib, sport mashg'ulotlariga yetaklagan, musobaqalarda, «ha, barakkalla bo'tam», deb g'ururlanib qarsak chalgan bobojonining ko'ksi tog' bo'ldi-da.

Sardorbekning niyati katta: chempion bo'lib dunyo kevganida, bobosiniyam sayohatlarga olib bormoqchi.

Darvoqe, sizning ham yaqinlaringiz chempion bo'lishingizni juda xohlayotgandir? Unda, kattalarning gaplariga quloq soling. Bekorchi o'yinlardan voz kechib, sport bilan jiddiy shug'ullaning!

*Madinabonu MIRZAJONOVA,  
Xalqaro jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi*

edi. «Mening qizim chempion bo'ldi», deya faxrlandi. Chunki Halima qishloqning birinchi chempion qizi bo'ldi-da. Uni otasi 8 yoshida Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi kikkboksing mashg'ulotlariga olib borganida, murabbiy Qahramon Ro'ziyev «Tirishqoqqina bu qizchadan yaxshi natijalar kutsa bo'ladi», deya ko'nglidan o'tkazgandi. Halima o'sha yiliyoq viloyatda 3-o'ringa loyiq deb topildi.

2006-yilda respublika birinchiligida Halimadek chempionga o'z vazniga mos raqib qiz topilmadi. Shuning uchun murabbiylar maydonga o'g'il bolalarni chorladilar. Natija kutilgandan-da a'lo bo'ldi. Poytaxtda o'tgan jahon chempionatidagi yutug'i ajoyib voqeaga aylandi. Endi u sportning muaytay va kikkboksing turi bo'yicha tengqurlari orasida tengsiz chempion bo'ldi. Medallar shodasiga Halima yana bir medalni qo'shib qo'ydi. Bu jetkundoning birinchi oltin medali edi.

Yakkakurashlarning barcha turlarini chin dildan o'rganib, o'g'il bolalardek jasur bo'lib kamol topayotgan chempion qizimizning orzusi Samarqanddagi Olimpiya zaxiralari kollejiga o'qishga kirish. Kelgusida el-yurt ishonchiga ega bo'lish.



## 02-02 O'RGANIB, DONO BO'LUR

### BAHODIR

Bir baxildan so'radilar:

– Aytinchchi, olamdagi odamlarning eng bahodiri kim?  
– Eng bahodir, – dedi u, – biroq ovqat yeb turganda qarab tursa-yu, og'zidan so'lagi oqmasa, o'sha kishi.

### OB-HAVO

#### DARAKCHILARI

Qishda kechasi qirov tushsa, ertasi kuni qor yog'maydi.

Agar qishda kechasi havo ochiq bo'lib, yulduzlar yorqin jimirlasa, sovuq kuchayishi kutiladi. Qishda tuman tushsa, havo isiy boshlaydi.

Qishda daraxtlarning shoxlariga qirov inishi – sovuqdan nishona.

### XUNUK ODAT

Ovqatlanish paytida har qanday ovoz chiqarish tarbiyasizlikni ko'rsatadi. Og'izni to'ldirib chaynash va katta-katta bo'laklarni og'izga solish yaxshi emas. Og'zingiz to'laligida gapirish va kulish yaramaydi. Bu, birinchidan, juda xunuk odat, ikkinchidan, og'izdan luqma tushib ketishi yoki ovqat zarrasi nafas yo'lga o'tib, kishi yomon yo'talishi mumkin.

### XUSHBO'Y VA LAZZATLI TAOM

Bir hakimdan qaysi taom eng xushbo'y va lazzatli, deb so'rab qoldilar. Hakim dedi:

– Qorni och paytida yeyilgan taom.

### BUNIESLAB QOLING!

**Hamal** – lug'oviy ma'nosi «Qo'y»dir. 21-martdan 21-aprelga qadar davom etadi.

**Savr** – lug'oviy ma'nosi «Ho'kiz», «buqa»dir. 22-apreldan 22-mayga qadar davom etadi.

**Javzo** – «Oq-qora qo'y»dir. U 22-maydan 22-iyulgacha davom etadi.

**Saraton** – «Qisqichbaqa» demakdir. 22-iyundan 21-iyulgacha to'g'ri keladi.

**Asad** – «Sher» degan ma'noni anglatadi. Bu oy 22-iyuldan 21-avgustgacha davom etadi.

**Mezon** – «Tarozi» degan ma'noni anglatadi. 22-sentabrdan 21-oktabrgacha qadar davom etadi.

**Qavs** – «Yoy» degan ma'noni anglatadi. 21-noyabrdan 22-dekabrgacha davom etadi.

**Hut** – «Baliq» degan ma'noni anglatadi. 19-fevraldan 21-martgacha davom etadi.

### BADMINTONCHI QIZLAR

Bolalar, dunyoda sportning 130 dan ortiq turi borligi ma'lum. Ammo ularning barchasi ham ommaviylashib ketevermagan. Badminton ham shunday. Bu sport turida barmoq bilan sanarli sportchilar topiladi, xolos. Mutaxassislarning aytishlaricha, sportning aynan shu turi arzon va qulay hisoblanarkan. Unga faqat ikkita raketka, bitta stol va sharikchalar kerak bo'larkan. Eng qizig'i, agar siz badminton bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, pul sarflab maxsus zallarga borib yurmaysiz. Chunki bu shart-sharoitni uyingizda bimalol yaratib olishingiz mumkin. Bordi-yu, chempionlikka qadam tashlamoqchi bo'lsangiz, unda murabbiy darkor.

Buxorodagi «Xumo» sport majmuasida hozirda 63 nafar o'g'il-qiz badminton bilan muntazam shug'ullanishni boshlagan. Murabbiy Lola Aliyeva ikki yildirki shu sport turida viloyat terma jamoasi safida shogirdlari borligidan shod.

### RINGDA YANA BELLASHUV

2007-yilning 14-aprel sanasi yurtimiz sport tarixida zarhal harflar bilan bitildi.

Xuddi shu kuni g'oliblik bayrog'ini baland ko'targan yurtdoshimiz Ruslan Chagayevning g'alabasi jahon ahlini lol qoldirgan edi. Bu olamshumul voqea hanuzgacha qalblarimizni iftixorga va g'ururga to'ldirib turibdi.

Mana, oradan roppa-rosa 10 oy o'tib, matbuot sahifalarida yana Ruslan Chagayevning yangi jangi haqida yozilayapti.

Professional boksning o'ta og'ir vazni – WVA (Butunjahon boks assotsiatsiyasi) yo'nalishi bo'yicha jahon chempioni Ruslan akangiz yana chempionlik kamarini himoya qilish uchun ringga ko'tarilmoqda. Bu safar chempionimizga britaniyalik Mett Skelton raqiblik qilar ekan. Ana shu shov-shuvli jangni kuzatishga dunyo boks ishqibozlari bugundanoq tayyorgarlikni boshlab yubordilar. Siz-chi, millatimiz qahramoni Ruslan Chagayevning mislsiz jangini oila davrasida miriqib tomosha qilganimiz kelyaptimi?

Darvoqe, yaqindagina Germaniyada bokschilar va ularning murabbiylari ishtirokida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida bo'lajak jangga bag'ishlangan tayyorgarlik ishlari haqida ma'lumotlar berildi. Demak, Mett Skelton va Ruslan Chagayev janggi 2008-yilning 19-yanvar kuni bo'lib o'tishi belgilandi.

G'OLIBA

### SPORT MAJMUASI

#### GIMNASTIKA – BU GO'ZALLIK TANTANASI

5-ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari Bolalar va o'smirlar sport maktabi hamda «Xumo», «Nafis» sport inshootlari deyarli bir joyda joylashgan. Ushbu sport maktabida 500 nafardan ortiq sportchilar shug'ullanmoqdalar.

Murabbiylar Sobir

Mo'minov, Mo'mina Quliyeva, Feruza Muzaffarova, Botir Ma'rupov, Farhod Ochilov ana shu sport majmualarida ta'lim-tarbiya olayotgan iste'dodlarni kamolga yetkazishga astoydil bel bog'lashgan. Har yili yosh

• sportchilar orasida viloyat  
• miqyosidagi turnirlar tashkil etilib,  
• respublika musobaqalari uchun

• chempionlar tanlab olinadi.  
• Sport maktabining badiiy  
• gimnastikachilari «Nafis» gimnastika zalida  
• mashg'ulotlar olib boradilar. Buxoro  
• viloyatida o'tadigan katta bayramlarda  
• «Nafis»ning qizlari o'z mahoratlari bilan  
• ko'pchilikni lol qoldirmoqdalar. Rimma  
• Xoxlova, Yekaterina Kupatadze, Alsina  
• Chepkunova, Zarema Dinislova  
• shogirdlarining maqsadi gimnastikada  
• yuqori cho'qqilarga erishish.

• Sarlavhani bejiz go'zallikka  
• qiyoslamadik. Rang-barang mashqlari-yu  
• jozibador harakatlari bilan maydonni yash  
• natib turgan bunday qizlarga sportning  
• raqqosa qizlari deb ta'rif berdik-da.  
• Shunday emasmi?



## TULKI BILAN KO'ZACHA



(Rus xalq ertagi)

Bir kampir dalaga ishlashga chiqibdi. Va ko'zachasidagi sutni butalar ortiga yashirib qo'yibdi. Ko'zacha turgan yerga Tulki kelib unga boshini tiqibdi-da, hamma sutni ichib qo'yibdi. «Endi uyga ketsam ham bo'ladi», deb o'ylabdi. Bechora Tulkijon qani endi boshini ko'zadan chiqara olsa. Tulki nima qilarini bilmay u yoqdan-bu yoqqa yura boshlabdi, so'ng boshini chayqatibdi-da:

– Hoy ko'zacha, hazillashayapsanmi, bo'ldi endi, meni qo'yib yubora qol, ko'zajon! Ko'p taltaymagin, iltimos, bo'ldi endi, – debdi. Tulkingning boshi ko'zadan chiqmas emish. Uning jahli chiqib ketibdi-da:

– Shoshmay tur, sen yaxshilikcha boshimni qo'yib yubormasang, seni suvga cho'ktirib yuboraman, – debdi. Tulki anhor tomon yugurib ketibdi va ko'zani cho'ktira boshlabdi. Ko'za-ku cho'kishga cho'kibdi-ya, lekin Tulkini ham o'zi bilan tortib ketibdi.

Dildora RO'ZIMAHAMADOVA tarjimasi


## TABRIKLAYMIZ!

Yangi yil arafasida tug'ilgan kunini nishonlayotgan Otabek Hamroqulov rasm chizishga juda qiziqadi. U Toshkent shahri, Hamza tumanidagi iqtisod sohasiga ixtisoslashgan 166-litsey-maktabning 5-sinfida o'qiydi. Otabek gazetamizga birinchilar qatori obuna bo'lgan ekan. Otasi Rahimjon aka, onasi Nodiraxon opa uni tug'ilgan kuni bilan tabriklashimizni so'rashgan.

Tug'ilgan kuning bilan qutlab, kelgusida o'zbekning eng zo'r rassomi bo'lishingni tilab qolamiz.



TAHRIRIYAT



## BILASIZMI?



Qorbobo turli mamlakatlarda Papasneg, Shen Dan, Laojen, Santa-Klaus, Per Noel, Mikalaus, Ded-moroz, Youlupukki singari nomlar bilan ataladi.

\*\*\*

V asrda Turkiyaning Mira shahrida Nikolay degan arxiyepiskop yashagan. U o'ta saxiy bo'lganligi bois, o'lganidan so'ng muqaddas Nikolay deb e'lon qilingan. 19-dekabr esa muqaddas Nikolay kuni sifatida nishonlangan. Shu kuni bolalarga o'yinchoqlar tortiq qilingan. Qorbobo obrazining paydo bo'lishida Nikolayning siymosi ham o'ziga xos rol o'ynagan.

\*\*\*

Ruslarda sharqiy slavyanlarning ayoq xudosi Treskun Qorbobo obrazi yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan uning nabirasi – Qorqiz paydo bo'lgan.

\*\*\*

Olimlarning ta'kidlashicha, XVI asrda Elzas shahrida (o'sha paytda bu shahar Germaniyaga qaragan, hozir esa Fransiya tasarrufida) archa daraxti ilk bor bezatilgan. Nemislar uni ilohiy daraxt, uning novdalarida ezgulik xudosi yashaydi, u doimo ko'm-ko'k, ya'ni abadiy hayotiylik, doimiy yoshlik, botirlik, ishonch, g'urur ramzi, deb hisoblashgan.

\*\*\*

Yangi yil bayrami 1-yanvar kuni 1654-yili Fransiya, 1699-yili Rossiyada, 1752-yili esa Angliyada nishonlana boshlangan. Bungacha barcha mamlakatlarda Yangi yil bahorning ilk oyi martda nishonlanib kelingan.

## SKANVORD

Daraxt-zor	Tog' qo'y Harbiy unvon	Maza, ta'm	Ja-sur			Dalil	Yuza		
			... bob		Me-tall	K	... kon		
Mak-tub		Juft emas			Chol-g'u asbobi				
		Joni-vor	Yevro-pa dar-yosi						
Puffa-ma soz				I	Sha-mol	T			
So-kin	Temir odam			Qozoq-cha ism			Pul birligi		
	Yu-non harfi	San'at	Kim-yovly modda			Nota			
		O'zbek boks-chisi							
	Da-raxt	Ari a'zosi	Alan-ga	O'r-toq	"...-to'q-moq"	Mil-lat	Fizik zarra	Za-min	Say-yo-ra
				Sport				Badily bu-yum	
O'zbek shoiri	Dar-yo			Musi-qa		O	Avto-poyga	Oid	
						Tiz-ma narsa			
Ism		Adabiy faoli-yat	Yoz-ma ish	Quri-lish ashyosi		Duk-kakli don			
		Nota	Ingliz adibi			B	Iskab-topar		
Yirt-qich					She'r satri				

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV